Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

FARG‘ONA VILOYATIDA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING TAHLILI

Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich
PhD, Toshkent kimyo-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0006-2728-9264
tukhtasinovzafar@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21822401

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda kichik biznesning 2021–2025-yillardagi hududiy va tarmoq dinamikasi, bandlik holati, investitsion faollik hamda ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijadorligi statistik ko‘rsatkichlar asosida baholanadi.
Kalit so‘zlar: mahalla, mahalliy tadbirkorlik, kichik biznes, tadbirkorlik rivojini boshqarish, ekotizim.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish va kichik korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli choralar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, kichik biznes subyektlari soni, ulardagi bandlik, asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hamda hududiy va tarmoq rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli tafovutlar hanuz saqlanib qolmoqda. Mazkur holat kichik biznes taraqqiyotining iqtisodiy tendensiyalarini o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar asosida kompleks o‘rganishni taqozo etadi. Maqolaning asosiy maqsadi 2021–2025-yillarda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan kichik korxonalar va mikrofirmalar rivojlanishining dinamikasi, hududiy hamda tarmoq tarkibi, bandlik va investitsion jarayonlarini statistik ma’lumotlar vositasida baholashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, dinamik qatorlarni o‘rganish, guruhlash va statistik umumlashtirish usullari qo‘llanib, kichik biznes rivojiga ta’sir qiluvchi ustuvor tendensiyalar aniqlanadi hamda sektorning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsion menejment, hududiy taraqqiyot hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalari B.Yu. Xodiyev [1], M. Sharifxo‘jayev, M.S. Qosimova, D.N. Rahimova, Yo. Abdullayev [2], B.K. G‘oyibnazarov [5], S.K. Salayev [6], Sh.J. Ergashxodjayeva [7], U.V. Gafurov [4, 8, 11], D.S. Alimatova [9], M.M. Ibragimova [10] va boshqa mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Mazkur ilmiy ishlarda kichik biznesni boshqarish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion marketing, davlat tartibga solish mexanizmlari, shuningdek, ekonometrik modellashtirish va prognozlash muammolariga ustuvor ahamiyat berilgan. Mahalla miqyosida tadbirkorlik va hunarmandchilikni kengaytirish, oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta’minlash masalalari esa B. Berkinov, U.V. Gafurov, I.M. Xasanov [12], N.N. Ernazarova [13], T.N. Mamayev [14], O.X. Mahmudov [15] kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu izlanishlarda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari, oilaviy biznesga ko‘maklashish, hunarmandchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, kambag‘allik darajasini pasaytirish va mahalliy iqtisodiy faollikni kuchaytirish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari sonining 2021–2025-yillardagi o‘zgarishini va hududlar o‘rtasidagi farqlarni ifodalaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, respublika bo‘yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2021-yilda 462,8 ming birlikni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 523,6 ming birlikka yetib, 13,1 foizga ko‘paygan. Ayni paytda, 2023 va 2024-yillarda mazkur ko‘rsatkich pasayib, tegishli ravishda 417,1 ming va 358,1 ming birlikni tashkil qilgan. 2025-yilda iqtisodiy faollikning qayta jonlanishi hisobiga korxonalar soni 403,8 ming

birlikka ko‘tarilgan. Hududiy taqsimotda Toshkent shahri yetakchi bo‘lib, 2025-yilda poytaxtda 96,5 mingta korxona faoliyat ko‘rsatgan. Bunday ustunlik Toshkent shahrining yuqori iqtisodiy, moliyaviy va infratuzilmaviy imkoniyatlari bilan izohlanadi. Shuningdek, Toshkent viloyati (40,1 ming), Samarqand (34,5 ming), Farg‘ona (31,3 ming) va Qashqadaryo (25,0 ming) viloyatlari kichik biznes faoliyati nisbatan rivojlangan hududlar qatoridan joy olgan. Sirdaryo (10,0 ming), Jizzax (15,2 ming) hamda Navoiy (18,4 ming) viloyatlarida subyektlar sonining kamroq bo‘lishi esa hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va demografik ko‘lami bilan bog‘liq.

1-jadval

O‘zbekiston hududlarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik

Hudud	2021	2022	2023	2024	2025	2025 yilda 2021 yilga nisbatan (%)
O‘zbekiston Respublikasi	**462834**	**523556**	**417080**	**358116**	**403767**	87,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	19998	22863	22066	17180	19606	98,0
Andijon	34999	39038	24381	19967	21503	61,4
Buxoro	27690	30082	27594	22615	24948	90,1
Jizzax	19463	22474	16677	13534	15208	78,1
Qashqadaryo	31152	36421	27980	22452	25038	80,4
Navoiy	20472	22844	19539	16165	18400	89,9
Namangan	28949	32305	23136	19547	22471	77,6
Samarqand	40724	47943	37398	31470	34495	84,7
Surxondaryo	24395	27368	20589	19101	20753	85,1
Sirdaryo	13808	15036	11217	8639	9975	72,2
Toshkent	44156	49145	38953	34389	40139	90,9
Farg‘ona	40403	46350	36238	28076	31289	77,4
Xorazm	21984	25616	23854	20528	23465	106,7
Toshkent sh.	94641	106071	87458	84453	96477	101,9

2-jadval ko‘rsatkichlari kichik biznesning investitsion faolligi hamda ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish darajasini baholashga xizmat qiladi. Respublika miqyosida kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari 2021-yildagi 109,2 trln so‘mdan 2025-yilda 362,9 trln so‘mga yetib, qariyb 3,3 barobar ko‘paygan. Bunday dinamika kichik biznes doirasida ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, texnologik modernizatsiya va yangi loyihalarni ro‘yobga chiqarish jarayonlari faollashganini ko‘rsatadi.

Hududlar bo‘yicha investitsiyalarning eng katta hajmi Toshkent shahri (56,1 trln so‘m), Namangan viloyati (51,2 trln so‘m) va Toshkent viloyati (44,1 trln so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelgan. Xususan, Namangan viloyatida mazkur ko‘rsatkichning 2021-yilga nisbatan qariyb olti barobar oshishi hududdagi sanoat ishlab chiqarishi va tadbirkorlik jarayonlarining jadal kengayayotganini ifodalaydi. Andijon

viloyatida ham investitsiyalar hajmi 6,3 trln so‘mdan 25,4 trln so‘mga ko‘tarilib, yuqori o‘sish sur’ati qayd etilgan.

2-jadval

Hududlar kesimida kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitalga yo‘naltirgan investitsiyalari, mlrd so‘m

Hudud	2021	2022	2023	2024	2025	2025 yilda 2021 yilga nisbatan (%)
O‘zbekiston Respublikasi	**109202,2**	**127640,6**	**176630,5**	**265685,8**	**362910**	**3,3m.**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2415,5	2738	3867,4	5940,4	13541	5,6m.
Andijon	6269,6	8466,9	12901,1	21144,9	25417,7	4,0m.
Buxoro	7232,8	9760,6	19413,9	28300	24407,7	3,3m.
Jizzax	6365,2	7474,6	10370,5	12330,7	18601,1	2,9m.
Qashqadaryo	4459,7	4303,8	7945,6	15628	15744	3,5m.
Navoiy	5936,5	7686,5	12453,9	12254,6	23208,9	3,9m.
Namangan	8606	9637,9	13010,3	44061,2	51178,8	5,9m.
Samarqand	8787,8	11438,3	16182,8	15756,6	24285,9	2,7m.
Surxondaryo	5744,3	5728,4	10600,2	7982,5	14460,9	2,5m.
Sirdaryo	4454,1	9447,5	11622,9	8384,2	11915	2,7m.
Toshkent	13599,1	13164,4	18630,1	33038,5	44103,5	3,2m.
Farg‘ona	7644,4	9564,7	12170,2	15597,5	24267,3	3,2m.
Xorazm	4606,8	4596	4654,7	8463,6	15649,2	3,4m.
Toshkent sh.	23080,4	23633	22806,9	36803,1	56128,9	2,4m.

Buxoro, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ham investitsion jarayonlar faolligi yuqori bo‘lib, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va biznes muhitining sifatini yaxshilashga qaratilgan loyihalar izchil amalga oshirilgan. Navoiy hamda Xorazm viloyatlarida investitsiyalar o‘sishi nisbatan past boshlang‘ich darajadan boshlangan bo‘lsa-da, 2025-yil yakuniga kelib salmoqli natijalar qayd etilgan.

Investitsiyalar hajmining kengayishi ishlab chiqarish omillarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan kapital resurslarining ortishini bildiradi. Buning natijasida kichik korxonalarning texnologik ta’minoti yaxshilanadi, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlik darajasi yuksaladi hamda iqtisodiy o‘sish uchun barqaror zamin shakllanadi. Shu sababli investitsion faollikni muntazam rag‘batlantirish kichik biznesning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim shart sifatida namoyon bo‘ladi.

Savdo tarmog‘i 152,6 mingta korxona bilan birinchi o‘rinni egallab, umumiy kichik korxonalar sonining qariyb 38 foizini qamrab olgan. Ushbu holat savdo faoliyatini boshlash xarajatlarining boshqa tarmoqlarga nisbatan pastligi, bozor talabining yuqoriligi va mazkur yo‘nalishda tadbirkorlik faoliyatini tez yo‘lga qo‘yish imkoniyati bilan izohlanadi. Sanoat sohasida 58,5 mingta korxonaning faoliyat

yuritishi real sektorda kichik biznes imkoniyatlari saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 34,3 mingta, qurilish tarmog‘ida esa 29,8 mingta kichik korxona mavjud bo‘lgan.

Bundan tashqari, yashash va ovqatlanish xizmatlarida 30,1 mingta, tashish va saqlashda 17,0 mingta, axborot va aloqa sohasida 11,4 mingta hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 10,3 mingta kichik biznes subyekti faoliyat ko‘rsatgan. Ayniqsa, 2025-yilda axborot va aloqa yo‘nalishidagi korxonalar sonining ortishi iqtisodiyotda kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq.

O‘tkazilgan tahlil O‘zbekistonda kichik biznesning tarmoq tarkibi bosqichma-bosqich diversifikatsiyalashayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, savdo sohasining umumiy tarkibdagi yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. Kelgusida iqtisodiy o‘sishning barqarorligini kuchaytirish uchun sanoat, axborot texnologiyalari va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi boshqa faoliyat yo‘nalishlarida kichik biznes ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tarkibiy o‘zgarish ishlab chiqarish omillaridan unumli foydalanish hamda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarini jadallashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes korxonalarining iqtisodiy taraqqiyoti va ishlab chiqarish omillaridan foydalanish holatini o‘rganish natijalari ushbu sektor mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi muhim bo‘g‘in ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot doirasida 2021–2025-yillarda kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining asosiy indikatorlari tahlil qilinib, ularning hududlar hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha shakllangan rivojlanish xususiyatlari aniqlangan.

Tahliliy natijalarga ko‘ra, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonida ayrim davrlarda qisqarish kuzatilganiga qaramay, 2025-yilda tiklanish jarayoni boshlangan va tadbirkorlik faolligi yana o‘sish yo‘nalishiga qaytgan. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari kichik biznesning asosiy hududiy markazlari sifatida ajralib turadi. Mazkur hududlarda ishlab chiqarish va xizmatlar infratuzilmasining rivojlanganligi, investitsion sharoitlarning nisbatan qulayligi hamda bozor sig‘imining kattaligi korxonalar sonining yuqori darajada shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Umuman olganda, kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishi mehnat, kapital va tadbirkorlik resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bilan uzviy bog‘langan. Kelgusida sektorning barqaror o‘sishini ta’minlash uchun investitsiya oqimlarini ko‘paytirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, hududlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes ulushini oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar kichik biznesning mamlakat iqtisodiy o‘sishidagi yetakchi drayverlardan biri sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment : darslik. — Toshkent, 2003. — 37 b.;
2. Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savolga 100 javob. — Toshkent : Mehnat, 2002. — 157 b.;
3. Xodiyev B. Yu. O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modellashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2000. — 42 b.;
4. G‘ofurov A. Kichik xo‘jalik yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari : monografiya. — Farg‘ona, 2008. — 74 b.;
5. Boltaboyev M. R., G‘oyibnazarov B. K., Otajonov Sh. I. Kichik biznes va tadbirkorlik : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2011. — 43 b.;
6. Salayev S. K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash : iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2007. — 14 b.;
7. Ergashxodjayeva Sh. J. Innovatsion marketing. — Toshkent : Cho‘lpon, 2014. — 178 b.;

8. Gafurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi. — Toshkent : O‘zBMA, 2017. — 274 b.;
9. Alimatova D. S. Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish : iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent : TMI, 2018. — 77 b.;
10. Ibragimova M. M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini tarkibiy o‘zgarishlar asosida oshirish : iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent : TDIU, 2018. — 54 b.
11. Gafurov U. V. Mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari // Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. — 2025. — № VI. — B. 794–799.;
12. Xasanov I. M. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari // ReFocus. — 2022. — № 1.;
13. Ernazarova N. N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — № 3. — B. 253–258.;
14. Mamayev T. N. Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish // JMBM. — 2023. — № 11.;
15. Mahmudov O. X. Oilalarda kambag‘allikni qisqartirish omillari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — № 6. — B. 267–276.